

**O'SMIRLIK DAVRIDA SUITSID MUAMMOSINI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLAR**

Sulaymonova To'xtaxon
Abdupattoyeva Dilfuza
Ahmadoxunova Nigora
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada suitsidning qanchalik global muammoligi, dunyo bo'yicha foizlarda ko'rinishi va psixologik sabablari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda suitsidning oldini olish va bunday holatlar takrorlanmasligi uchun psixologik yechimlar va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'z: Suitsid, suitsident, zo'ravonlik, ziddiyat, o'smirlik, o'spirinlik.

Har yili dunyoda 800 ming kishi o'z joniga qasd qiladi – bu har 40 soniyada bitta holat degani. Bunday holatlarning aksariyati, ya'ni 79% i daromad darajasi kam va o'rtacha bo'lgan mamlakatlarda uchraydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, erkaklar orasida o'z joniga qasd qilish holatlari zo'ravonlik oqibatida tashkil etilgan o'lim holatining 50% ni, ayollarda esa 71% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ko'ra Yevropa mintaqasidagi ko'plab davlatlar bu borada dunyodagi eng yuqori ko'rsatgichga ega, ya'ni yiliga 140 ming suitsid holati kuzatiladi. Bundan tashqari har 100 ming kishiga Litvada 68 ta, Belarussiyada 63 ta, Rossiyada 58 ta, AQSHda 52 ta, Shri Lankada 44 ta, Ukrainada 40 ta holatga to'g'ri keladi. Eng achinarlisi, o'smirlik yoshida bo'lgan va olamdan o'tgan har olti qizdan biri o'z joniga qasd qiladi.

O'zbekistondagi suitsid holatini o'rganadigon bo'lsak, O'zbekistonda 10-18 yoshli o'smirlar va o'spirinlar orasida o'z joniga qasd qilish va o'z-o'ziga zarar yetkazish oqibatlarida o'lim darajasi Markaziy Osiya mamlakatlari orasida eng yuqori ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda 2019-yilning o'tgan davrida erkaklar va ayollar o'rtasidagi suitsid ko'rsatgichlari tashkil qilinganda erkakalar bilan bog'liq holat 57.3% ni, ayollar bilan bog'liq holat esa 42.7% ni tashkil etdi, ya'ni yiliga 700 dan ortiq erkak va 600 ga yaqin ayol o'z joniga qasd qiladi.

O'zbekistonda suitsid bo'yicha 2020-yilga ko'ra har 100 ming kishiga 6.11 ta holat to'g'ri kelmoqda. Suitsid barcha dinlarda qoralanadi, ayniqsa, bizning musulmon olamimizda ya'ni o'z joniga qasd qilish haqida Qur'oni Karimning Niso surasi 29-oyatida ham shunday deyilgan “O'zlaringizni o'ldirmangiz! Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir”. Ma'lumotlarga ko'ra aholisi Musulmon davlatlar (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt va boshqalar) da suitsid bilan bog'liq holatlar kam kuzatilishini din omili bilan ham bog'liqligini ta'kidlashadi.

Tadqiqotlarni o'qir ekansiz, suitsidga yetaklaydigan asosiy sabablar: yolg'izlik, yaqinlari tomonidan qabul qilinmaslik, biror kamchiligi tufayli doimiy masxaralanish, ota-onasi bilan yaqin emaslik kabilar ekaniga guvoh bo'lasiz. Ilmiy adabiyotlarda o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilishga olib boruvchi bir necha omil alohida sanab ko'rsatiladi:

- Oiladagi kelishmovchiliklar;
 - Ota-ona bilan muloqotning yo'qligi;
 - Ota-onaning ajralishi;
 - Jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlik;
 - Kambag'allik yoki o'ta boylik, uchunchi shaxs bilan solishtirishlar.
- Suitsidentlarda o'z joniga qasd qilishning quyidagi belgilari kuzatiladi:
- ko'z yosh va affektiv holat;
 - mungli musiqalarni doimiy eshitish;
 - hayotga bo'lgan qiziqishning so'nishi;
 - kelajak rejalarining mavhumligi.

Yana, internetga haddan tashqari bog'lanib qolish, suitsidga undovchi videolar tomosha qilish, o'zini o'ldirib "mashhur" bo'lib ketgan tengdoshlariga o'xshash istagi sabab ham shunday qaltis qadam tashlanishi mumkin. Shu bois psixologlar ota-onalarga farzandlari bilan doimiy muloqot qilish, ular bilan do'st tutinishni, atrofdagilarga befarq qaramaslikni, muammolari haqida gaplashadigan insoni bo'lishni tavsiya etishadi. Haqiqatan ham, hayotda yakkalanib qolish, shaxsiy muammolar girdobidan chiqolmaslik, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik kuchayib ketishi jamiyatda suitsid xavfini oshirib yuboradi. Mamlakatdagi islohotlar ravishida, ijtimoiy jarayonlarda ayni shu holatni ham hisobga olish zarur bo'ladi. Shuningdek, har birimiz yonatrofdagi yordam so'rayotgan, asabiylashayotgan, baqirayotgan, odatdagidan farqli qaysarlik qilayotgan yoki jim bo'lib qolgan, bizdan sababsiz uzoqlashayotgan, qarzga botgan, ishsiz va ko'maksiz qolgan insonlarning "faryod"ini eshita bilishimiz va unga jiddiy munosabatda bo'lishimiz zarur.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ko'ra, bu mavzu juda ko'pdan beri tabu (oshkor qilinmay) bo'lib kelgan. Oxirgi vaqtlarda keng quloq yo'yan ijtimoiy "trendlar" - virtul olamdagihaqorat va po'pisalar, g'oyalarning ijtimoiy virus kabi tarqashi bu tilga olinmas muammoni chuqurlashtirib, ko'proq sondagi yoshlar hayotini xafv ostiga qo'ymoqda. "O'z joniga qasd qilishjuda murakkab muammo. Aksar hollarda unga itaruvchi omil yagona bo'lmaydi. Bundan tashqari, yoshlar o'rtasidagi o'z joniga qasd qilish hollari yaxshi o'rganilmagan va tadqiq qilinmagan",-deydi Britaniyada suiqasdlarning oldini olish bilan shug'ullanadigan Samaritans tashkilotining boshqaruvchi direktori Rut Sazerland. Amerikalik tadqiqotchi M.Laynxen suitsidga moyilligi mavjud shaxslarni o'z joniga qasd qilishdan ushlab qoluvchi 6 ta sababini ko'rsatgan:

1. Muammolarni hal qilish zarurligiga ishonch.
2. Bolalarga g'amxo'rlik.
3. Oila oldidagi mas'uliyat.
4. Suitsid qo'rquvi.
5. Jamiyatdagi insonlar yuz o'girishidan qo'rquv.
6. Ma'naviy va diniy qarashlar.

Suitsidga birinchi bor urinib, o'lmay qolgan shaxs keyingi urinishda, albatta, niyatiga erishishi mumkin. Ular bilan suhbat olib borishda va savol-javoblarda o'ta ehtiyotkor bo'lish lozim. Chunki bunday shaxslar orasida suitsid muvaffaqiyatsiz chiqqanidan, u xohlamagan hayotga yana qaytganidan afsus chekadiganlar va hammaga sharmanda bo'ldim, undan ko'ra o'lib ketsam bo'lmasmidi, deydiganlar ham bo'ladi. Bu ham o'ziga yarasha ruhiy zarba hisoblanadi.

Shu bois ham suitsidga keyingi urinishlar ko'p holatlarda o'lim bilan tugaydi. Yashashdan ko'ra o'lishni afzal ko'rdimi, demak, uning fikr-u xayoli keyingi suitsidni amalga oshirishda bo'ladi.

Bundaylarni ruhiy nogironlar deb atash ham mumkin. Ular juda katta tibbiy-psixologik va ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj bo'lib, ular bilan psixolog mukammal shug'ullanishi kerak. Bemor, albatta, psixologga boradi, uning suhbatlariga quloq tutadi. Odamlarni o'z joniga qasd qilishdan saqlab qoluvchi ushbu psixologlarni nimalar deyishi va qanday usullarni qo'llashi uning uchun qiziqarli tuyuladi. Bunday paytlarda ortiqcha aytilgan bir og'iz so'z, yoki suitsidni aniqlash uchun qo'llanilgan so'rovnomadagi biror jumla ushbu shaxs tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Shu bois ular bilan savol-javob nega suitsidga qo'l urgani haqida emas, balki boshqa narsalar, masalan, uning yoqtirgan narsalari yoki boshqa shu kabi savollar bilan boshlashi kerak. Yuqoridagi ma'lumotlarga qarab biz o'zimiz uchun to'g'ri xulosa chiqarishimiz va bunday vaziyatlarga uchramaslik uchun to'g'ri yo'l tuta bilishimiz kerak.

Men ustozim T.SULAYMONOVA aytganlaridek, har bir insonga yoshidan qat'i nazar psixologlar bilan doimiy muloqotda bo'lishni tavsiya qilgan bo'lardim. Ota-onalar o'z farzandlariga etiborli bo'lishlari oiladagi muammo, ziddiyat yoki kamchiliklarni farzandlari oldida hal qilmaslik, yaqin do'stlar esa arziyas sabablar bilan oradagi rishtalarni uzib yubormaslik, turli

xil qimorga undovchi taqiqlangan o'yinlarni o'ynamaslik, albatta, suitsidning oldini olishiga ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafayev Sh. O'smir psixologiyasi Biz bilmagan jihatlar. 2015-yil
2. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy psixologik muammolari. Toshkent "Fan" nashriyoti 2008.
3. Z.Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. 3-nashr T:2019
4. BBS, BMT, JSST ning dunyo va O'zbekistondagi statistikasi 2019.